

Туркияда ижара сукуки орқали давлат-хусусий шерикчилиги самарали йўлга қўйилган. 2018 йил якунига қадар эмиссия қилинган сукукларнинг асосий қисми давлат томонидан чиқарилган бўлиб, жами эмиссиянинг 52,3 %ни ташкил қилган. Қолган 47,7 % нодавлат сектори ҳиссаси ҳисобланади. Шунингдек, маҳаллий инвесторлар учун чиқарилган сукуклар халқаро сукукларга нисбатан кўпроқ бўлиб, мос равища 75 % ва 25 %га тенгdir.

**Хулоса ва таклифлар.** Тадқиқотимиз обьекти ҳисобланган сукуклар Ўзбекистонда мавжуд эмас. Таҳлиллардан хулосага келиш мумкинки, Ўзбекистон фонд бозорида молиявий инструментларнинг тури чекланган, давлат иштироки юқори ва савдолар ҳажми камлгича қолмоқда. Барча тоифадаги инвесторлар учун мамлакатимиз капитал бозорининг қуладигани ошириш мақсадида исломий қимматли қоғоз ҳисобланган сукукларни жорий этиш соҳа ривожи учун ҳисса қўшади.

### **Манба ва фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ibrahim Y., & Minai, M. S. (2009). *Islamic bonds and the wealth effects: evidence from Malaysia. Investment Management and Financial Innovations*, 6(1), pp. 184–191.
2. Said A., & Grassa R. (2013). *The determinants of sukuk market development: does macroeconomic factors influence the construction of certain structure of sukuk? Journal of Applied Finance and Banking*, 3(5), pp. 251–267.
3. Alahouel F., Loukil N. *Islamic stock-sukuk indexes' correlations: does financial uncertainty matter? //International Journal of Emerging Markets*. – 2021
4. BASYARIAH N., KUSUMA H., QIZAM I. *Determinants of sukuk market development: macroeconomic stability and institutional approach //The Journal of Asian Finance, Economics, and Business*. – 2021. – Т. 8. – №. 2. – С. 201-211.
5. Антропов В.В. Исламские финансы в глобальной экономике: современные тенденции и перспективы. Причины появления исламских финансовых // Экономический журнал. 2017. №48. с. 57-77
6. Гафурова Г.Т. Сукук в системе исламского финансирования // Вестник АГТУ. Экономика. 2011. №2. с. 90-94;
7. Мокина Л.С. Исламские ценные бумаги как источник финансирования инвестиционных проектов и перспективы их размещения на финансовом рынке России // Российское предпринимательство. 2017. Том 18. №22. с. 3429-3446;
8. Трофимова О. Мусульмане и ислам в Западной Европе // Мировая экономика и международные отношения. 2009. №10. с. 52-62;
9. Зарипов И.А. Малайзия – флагман исламских финансовых // Вестник финансового университета. 2016. №4. с. 118-129;
10. Беккин Р.И. Исламская экономическая модель и современность. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Изд. дом Марджани, 2010. – 367 с.
11. Хасанов Х. Аҳлоқий (исломий) молиялаштириш тизими – инновацион молиялаштириш востиаси сифатида (Ўзбекистон ва МДҲ мисолида). "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 5, 2017 й.;
12. Хасанов Х., Давлатяров О. Фоиз ставкаси ва инфляция даражаси ўртасидаги боғлиқликнинг исломий молиялаштириш жиҳатидан таҳлили. Стратегическое планирование – важный фактор стабильности устойчивого социально-экономического развития страны и регионов: материалы Форума экономистов/под общей редакцией. Т.Ахмедова. – Ташкент: IFMR, 2019. сс. 245-252.
13. Султанов М. Ўзбекистонда инвестиция фондерларини ривожлантириш истиқболлари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) автореферати. -Т.: ТДИУ, 2019. 58 б.;
14. Аброров С., Корабев Н. Қимматли қотозлар бозорида сукукнинг ролига оид илмий-назарий мулоҳазалар ва унинг ўзига хос жиҳатлари //Иқтисодиёт ва таълим. – 2020. – №. 1. – С. 126-130.
15. Abrorov S. *The importance of sukuk in the development of economy: As an example of its impact on the income of the Malaysian population //Journal of Critical Reviews*. – 2020. – Т. 7. – №. 2. – С. 776-780.
16. Валиев Б.Б. Жаҳон фонд бозорида сукукларнинг ривожланиш тенденцияси //Иқтисодиётда инновация. – 2019. – №. 8.
17. Аброров С., Имамназаров Ж. Ислом молияси: Ўзбекистон учун янги имкониятлар //Иқтисодиёт ва таълим. – 2021. – №. 4. – С. 146-159.
18. *Islamic Finance Development Report 2020: Shifting Dynamics. The Islamic Corporation for the Development of the Private Sector and Refinitiv*. 72 p.
19. <https://www.cia.gov/library/publications/resources/the-world-factbook/fields/401.html#SN>
20. *Sukuk report: A comprehensive study of the global sukuk market. International Islamic Financial Market, July 2021, 10 th edition*. 219 p
21. *Sukuk report: A comprehensive study of the global sukuk market. International Islamic Financial Market 2013-2020 маълумотлари асосида Тадқиқот натижасида муаллиф томонидан тузилган*.
22. *Securities Commission Malaysia Annual Report 2020*. 200 p.

## **O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA MAVJUD SOLIQLAR BAZASINI ANIQLASH TARTIBI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING XUSUSIYATLARI**

**Xalikchayeva Sadoqat Ilhomjonovna –  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
"Soliqlar va sug'irta ishi" kafedrasи assistenti**

**Annotatsiya.** Maqolada soliqlarning davlat byudjet daromadlarini shakllantirishdagi asosiy manbasi sifatida e'tirof etilishiga, мамлакатимизда оlib borilayotgan soliq tizimidagi ilg'or siyosatini takomillashtirish kansepsiysi va soliq bazasi haqida hamda amaldagi mavjud soliq va yig'ilmalarning soliq solish bazasini aniqlash usullari, uning xususiyatlari, qolaversa, soliq solish bazasiga Ta'sir etuvchi omillarning o'ziga xos jihatlari, soliq bazasini kengayishiga yohud qisqarishiga olib keluvchi sabablar xususida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** soliqlar, iqtisodiyot, soliq siyosati, harakatlar strategiyasi, daromad, soliq bazasi, soliq kodeksi.

ПОРЯДОК ОПРЕДЕЛЕНИЯ СУЩЕСТВУЮЩЕЙ НАЛОГОВОЙ БАЗЫ В НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЕ УЗБЕКИСТАНА И ХАРАКТЕРИСТИКИ ВЛИЯЮЩИХ НА ЕГО ФАКТОРОВ

Халикчаева Садокат Ильхомжановна –  
ассистент кафедры «Налогов и страхования» Ташкентского  
государственного экономического университета

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы признания налогов основным источником доходов государственного бюджета, концепция совершенствования современной налоговой системы страны и налоговой базы, а также методы определения существующей налоговой базы по налогам и сборам, ее особенности и налогообложение, особенности факторов, влияющих на налоговую базу, причины, приводящие к расширению или сокращению налоговой базы.

**Ключевые слова:** налоги, экономика, налоговая политика, стратегия действий, элементы налогообложения, прибыль, налоговая база, налоговый кодекс.

PROCEDURE FOR DETERMINING THE EXISTING TAX BASE IN THE TAX SYSTEM OF  
UZBEKISTAN AND CHARACTERISTICS OF FACTORS AFFECTING IT

Khalikchaeva Sadokat Ilkhomjanovna -  
Tashkent State Economy University Assistant of the  
Department of Taxes and insurance

**Abstract.** The article discusses the issues of recognizing taxes as the main source of state budget revenues, the concept of improving the country's modern tax system and tax base, as well as methods for determining the existing tax base for taxes and fees, its features and taxation. features of factors affecting the tax base, reasons leading to the expansion or contraction of the tax base.

**Key words:** taxes, economics, tax policy, action strategy, tax elements, income, tax base, tax code.

**Kirish.** Iqtisodiyotning erkinlashuv sharoiti-da soliqlar va boshqa majburiy to'lovlari davlat byudjetining asosiy daromad manbai xisoblanadi. Dunyo iqtisodiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, rivojlangan davlatlarda soliqli daromadlarning davlat byudjetidagi ulushi 80-82 foizni tashkil etadi. Milliy iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlarda esa manzara qisman o'zgacha bo'lib, soliqli daromadlar 90-95 foizni tashkil etadi. Bizning mamlakatimizda ham soliqlarning hissasi davlat byudjetida 2020-yil makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga asoslanib aytadigan bo'lsak 95 foizni ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoniga asosan, davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi [1]. Shunday ekan, soliqlar davlat sektorining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashdagi asosiy dastak hamda davlatning samarali faoliyatini amalga oshirishi uchun byudjet daromadlarini yetarli va uzluk-sizligini ta'minlashning muhim vositasidir.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash

yili"da amalga oshirishga oid 2021-yil uchun Davlat Dasturida soliq islohatlarini amaliyotga samarali joriy etish, soliq ma'muriyatichilagini shaffof yo'lga qo'yish, soliq yukini kamaytirish va soddalashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish maslalari bo'yicha alohida amalga oshiriladigan tadbirlar belgilangan [2]. Bu tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish;
- Xalqaro standartlar asosida Davlat soliq qo'mitasi axborot tizimlari kompleksining yagona platformasini ishlab chiqish;
- Sotiladigan tovarlarning yagona elektron tasniflagich tizimini ishlab chiqish va onlayn nazorat-kassa mashinalari, elektron hisobvaraq-fakturlari, markirovkalash tizimlariga integratsiyalash;
- Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash ma'murchilagini takomillashtirish;
- Soliq xizmatlarini ko'rsatishni yangi bosqichga chiqarish va xalqaro standartlarga moslash-tirish, soliq organlarini "xizmat ko'rsatuvchi" yuqori texnologiyali tashkilotga transformatsiya qilishni davom ettirish.

Bu kabi farmonlar ijrosini taminlashda va izchil soliq siyosatini amalga oshirishda, albatta, 2020 yil 1 yanvardan yangi tahrirdagi Soliq kodeksi kuchga kirgani yuqoridagi belgilangan tadbirlar ijrosida muhim ahamiyat kasb etadi. Aytib o'tish joizki, mazkur hujjat soliq qonunchilagini maksimal darajada soddalashtirishga yo'naltirilgan konseptual o'zgartirishlardan tarkib topgan va uning asosiy maqsadi – insofli soliq to'lovchilar manfaatlarini

himoya qilishdan iborat. Ushbu hujjatga asosan, davlat soliq xizmati organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlar shakllari hamda mexanizmlarini takomillashtirish, soliq tizimini bundan-da samarali tashkil etish orqali ba'zi soliqlarning soliq solish bazasini kengaytirish masalalari ko'zda tutilgan. Qolaversa, Prezidentimiz tomonidan kuni kecha qabul qilingan, ya'ni, 31.08.2021 yil PQ-5239-sonli "Qurilish materiallari sanoatini qo'llab-quvvat-lash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 7 sentyabr kuni qabul qilingan "Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari yuqoridaq ustivor vazifalarning ijrosini ta'minlashdagi asosiy dastak bo'ladi deb o'ylaymiz.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Soliq baza-si haqida so'z yuritar ekanmiz mavjud soliq va yig'imlarning amal qilish mexanizimi, davlat byudje-tiga tushish miqdori soliq solish bazasining hajmiga, aniqlash tartibiga va bazaga ta'sir etuvchi omillarga bevosita bog'liqligining guvohi bo'lamiz. Chunonchi, soliq bazasi bu soliq elementlari ichida eng muhim ahamiyatli tarkibiy qismidir. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi soliq kodeksining 69-moddasida soliqlarning elementlari, ularning tarkibi, mazmuni va mohiyati bat afsil yori-tilgan. Hamda soliq kodeksining qolgan moddalari-da ham mavjud har bir soliq turi bo'yicha soliq solish bazasini aniqlash tartibi aniq va izchil yoritib berilgan.

Soliqqa tortiladigan baza va uning elemental-riga ta'sir etuvchi omillar haqida A. Jo'rayev va S. Shirinov "Soliq statistikasi va soliq pragnozi" nomli o'quv qo'llanmada [3], Vahobov A.V va Malikov T.S "Moliya" [4] darsliklarida ham yetarlicha fikir mulohazalar bildirib o'tishgan. Jumladan, Xudoyqulov S.K "Moliya va soliqlar" darsigida "Soliq bazasi soliq obyektining qismi bo'lib, u soliqlarning barcha ta-


moyillarini o'zida aks ettirib soliq obyektidan haqi-qatda soliqqa tortiladigan qismini aniqlab beradi" deya soliq bazasi xususida mulohaza yuritilganini ko'rishimiz mumkin [5].

Qolaversa, Peronko I.A., Gorelko A.I. kabi iqtisodchi olimlar ham "Проблемы формирования налогоевой базы на региональном и местном уровнях" nomli maqolalarida soliq bazasi bo'yicha te-gishlicha o'z qarashlari bilan o'rtoqlashgan [6].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot metodologiyasi sifatida butun iqtisodiy hamjamiyat doirasida hamda respublikamiz soliq tizimida olib borilayotgan soliq islohatlari, malakatimiz prezidenti qaror va farmonlarini chuqur o'rganish davomida analiz, sintez va iqtisodiy matematik usullar, ilmiy mushohada, ma'lumotlarni guruhlash hamda prognozlash orqali nazariy tahlil usullaridan keng foydanilgan.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** Soliq ko-deksida "Soliq bazasi soliq solish obyektining qiyemat, fizik yoki boshqa xususiyatini ifodalaydi. Har bir soliq uchun soliq bazasi va uni aniqlash tartibi ushbu Kodeks bilan belgilanadi" deya tavsif berilgan[7]. Bundan tashqari soliq bazasi xususida ilmiy adabiyotlarda "Soliqqa tortiladigan baza (asos, negiz) – unga nisbatan soliq stavkasi qo'llaniladigan daromad. Soliq to'lovchning yalpi daromadidan amaldagi qonunchilik bo'yicha taqdim etilgan soliq imtiyozlarini chegirish orqali aniqlanadi" degan hu-losalar ham mavjud [8].

Soliq bazasini aniqlashning har bir davlat uchun o'z usul va metodologiyasi mavjud. Bu usul metadalogik xususiyatlari o'sha davlatning mavjud soliq va yig'imlarning mohiyatidan kelib chiqqan tarzda iqtisodiy siyosati, soliq siyosati, moliya siyo-sati, rivojlanganlik darajasi, davlatning joylashuv o'rni, mentaliteti hamda turli ichki omillar ta'siridan foydalangan holda shakllantiriladi.



1-chizma. Soliq solish bazasini aniqlash usullari

Manba: Chizma muallif tomonidan chizillgan

1-chizmada O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliq obyektining tavsifiga qarab soliq bazasini aniqlash usullarini beshta yo'naliishga ajratilgan holda amalga oshirilishini ko'rishimiz mumkinadir, ya'ni, bular:

❖ Soliq to'lovchining daromadi asosida soliq bazasini aniqlash;

❖ Soliq to'lovchining mahsulot, tovar, ish va xizmatlar sotuvidan olgan tushumi asosida aniqlashuvchi usuli;

- ❖ Soliq to'lovchining unga tegishli bo'lgan mulki asosida soliq bazasini aniqlash usuli;
- ❖ Soliq to'lovchining tadbirdorlik maqsadida foydalangan resurslari asosida soliq bazasini aniqlash usul;
- ❖ Soliq to'lovchining faoliyat turiga qarab soliq bazasini aniqlash usuli.

**1-jadval**

**Soliq bazasini aniqlash usullari va soliq bazasiga ta'sir etuvchi omillar**

<b>I.</b>	<b>Soliq bazasini aniqlashda soliq to'lovchining daromadi asos qilib olingen soliq turlari va soliq bazasiga Ta'sir etuvchi omillar</b>	
1.	Foya solig'i	Daromad miqdori; chegirib tashlanadigan xarajatlar miqdori; hisobot davrida ko'rilgan zararlari miqdori
2.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	daromadi miqdorisoliqdan berilgan imtiyozlar; soliq solishdan ozod qilingan daromadlar miqdori.
3.	Ijtimoiy soliq	Ishchi xodimlar miqdori; ragbatlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya to'lovlarining berilishi; mehnatga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar miqdori;
<b>II.</b>	<b>Soliq bazasini aniqlashda soliq to'lovchining mahsulot, tovar, ish va xizmatlar sotuvidan olgan tushumi asos qilib olingen soliq turlari va soliq bazasiga Ta'sir etuvchi omillar</b>	
4.	Qo'shilgan qiymat solig'i	Soliq to'lovchilar soni; realizatsiya qilingan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar baholari va birligi; soliqdan berilgan turli imtiyozlar.
5.	Aksiz solig'i	Soliq to'lovchilar soni; soliq to'lovchilar moliyaviy ahvoli; soliqdan berilgan imtiyozlar.
6.	Aylanmadan soliq	Soliq to'lovchilar soni; soliq to'lovchilar moliyaviy ahvoli; soliqdan berilgan imtiyozlar.
<b>III.</b>	<b>Soliq bazasini aniqlashda soliq to'lovchining tadbirdorlik maqsadida foydalangan resurslari asos qilib olingen soliq turlari va soliq bazasiga Ta'sir etuvchi omillar</b>	
7.	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	Foydalilanigan resurs hajmi; soliq to'lovchilar miqdori; soliqdan berilgan imtiyozlar
8.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Foydalilanigan resurs hajmi; soliq to'lovchilar miqdori; soliqdan berilgan imtiyozlar
<b>IV.</b>	<b>Soliq bazasini aniqlashda soliq to'lovchining faoliyati asos qilib olingen soliq turlari va soliq bazasiga ta'sir etuvchi omillar</b>	
9.	Qat'iy belgilangan miqdorda soliq	Tadbirkorlar soni; soliqdan berilgan imtiyozlar
10.	Bolalar o'yin avtomatlari xizmati uchun belgilanadigan qat'iy soliq	O'rnatilgan joylar soni; soliqdan berilgan imtiyozlar
11.	Avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash xizmati uchun qat'iy belgilangan soliq	Egallagan maydon hajmi; tadbirkorlar soni; soliqdan berilgan imtiyozlar
<b>V.</b>	<b>Soliq bazasini aniqlashda soliq to'lovchining mulki asos qilib olingen soliq turlari va soliq bazasiga ta'sir etuvchi omillar</b>	
12.	Yuridik shaxslar mol-mulk solig'i	Korxona va tashkilotlarning soni; soliqdan imtiyozlar
13.	Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i	Kadastr qiymati; soliq to'lovchilar mol-mulk hajmi; soliqdan berilgan imtiyozlar
14.	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	Yer uchastkasi umumiy maydoni; soliqdan berilgan imtiyozlar; soliq solinmaydigan yer uchastklari maydoni
15.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	Soliq to'lovchilar soni; soliqdan berilgan imtiyozlar
16.	Avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im	Avtotransport vositalari qiymatining yoki dvigatel ot kuchi quvvati; soliq to'lovchilar soni; soliqdan berilgan imtiyozlar
17.	Chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kiradigan yoki uning hududi orqali tranzitda o'tuvchi chet davlatlarining avtotransport vositalari uchun yig'im	O'zbekiston Respublikasi hududiga kiradigan yoki uning hududi orqali tranzitda o'tuvchi chet davlatlarining avtotransport vositalari soni; soliqdan berilgan imtiyozlar

*Manba:* jadval muallif tomonidan tuzilgan

1-jadval ma'lumotlarida soliq to'lovchining daromadlari asosida soliq bazasi aniqlanadigan soliq turlari berilgan. Bunga ko'ra foya solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig', ijtimoiy

soliqlarda soliq solish bazasi uchun soliq to'lovchi daromadi asos qilib olinadi. Albatta, soliq solish xususiyatlariga binoan chegirib tashlanadigan xaratlar, soliq solishdan ozod etilgan daromadlani hi-

sobga olgan holda, qolaversa, hisobot davriga tegishli zararlar summasiga soliq solinadigan baza kamaytiriladi.

Soliq to'lovchining daromadi asosida aniqlangan soliq bazasiga bir-qator omillar o'z Ta'sirini ko'rsatadi. Soliq to'lovchining daromad miqdorini oshishiga olib keluvchi omillar soliq bazasini kengayishiga olib kelishi mumkin. Foyda solig'ini hisoblashda mavjud bo'lgan chegirib tashlanadigan xaratjatlar, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisoblashda chegiriluvchi soliq solishdan ozod qilingan daromadlar, berilgan imtiyozlar miqdorining oshishi soliq bazasini kamayishiga olib keladi. Masalan, hisoblangan dividend miqdorining oshishi daromad solig'i bazasini kengaytirsa, oldingi hisobot davri zararlari miqdorining oshishi foyda solig'i bazasining kamayishiga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy soliq va fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga yig'imlar soliq bazasiga korxonada ishlovchi ishchilarga to'lanuvchi, mehnat haqi ko'rinishidagi daromadlar miqdorining oshishi mazkur ijtimoiy soliq bazasini oshishiga olib keladi. Masalan, korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlar sonining oshishi, ish haqi miqdorining oshishi va hokazo. Ammo soliq to'lovchilarning sonini kamayishi, soliq to'lovchilarga imtiyozlar berilishi ijtimoiy soliq bazasini qisqarishiga olib keladi. Soliq to'lovchining mahsulot, tovar, ish va xizmatlar sotuvidan olgan tushumi asosida soliq bazasini aniqlash usuli milliy soliq tizimida eng va ko'p foydalilaniladigan usul hisoblanadi. Mazkur usul yordamida qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, aylanmadan soliq turlarining soliq bazasini aniqlashda foydalilanadi. Ko'rsatilgan soliq turlari bo'yicha soliq bazasini aniqlashda mahsulot, tovarlarni sotishdan, ish bajarishdan va xizmat ko'rsatishdan olingan tushumlardan hisoblash asosi sifatida foydalaniadi.

Soliq to'lovchining mahsulot, tovar, ish va xizmatlar sotuvidan olgan tushumi asosida aniqlanuvchi soliq bazasining kengayishiga ijobjiy va salbiy ta'sir qiluvchi qator omillar mavjud. Ta'sir qiluvchi omillar soliq to'lovchining mahsulot, tovar, ish va xizmatlar sotuvidan olgan tushumi asosida aniqlanuvchi soliq bazasi hajmi bilan funksional va nofunksional bog'lanishga ega. Soliq to'lovchining mahsulot, tovar, ish va xizmatlar sotuvidan olgan tushumi asosida aniqlanuvchi soliq bazalariga soliq to'lovchining hisobot davrida mahsulotni, tovarni sotishdan, ishni bajarishdan va xizmat ko'rsatishdan ola-digan yalpi tushumi, sof tushumi to'g'ri nisbatdagi bog'lanishga ega bo'lib, sanalgan omillarning miqdorini oshishi soliq bazalarini kengayishiga olib keladi. Bir so'z bilan aytganda sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar baholari va birligining oshishi soliq bazasini oshishiga olib keladi. Bir vaqtida salbiy ta'sir qiluvchi omillar ham mavjud. Mavjud imtiyozlar sonining ko'payishi, soliq bazasiga kirmaydigan tushumlar miqdorining oshishi, soliq

to'lovchilar soning kamayishi va shu kabi boshqa omillar soliq to'lovchining mahsulot, tovar, ish va xizmatlar sotuvidan olgan tushumi asosida aniqlanuvchi soliq bazasi miqdorini qisqarishiga olib keladi. Bundan tashqari nofunksional bog'lanishga ega bo'lgan, salbiy ta'sir qiluvchi omillar ham mavjud. Masalan, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, aylanmadan soliq to'lovchilarining moliyaviy ahvolini yomonlashuvi ham soliq bazasini qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Soliq to'lovchining tadbirkorlik maqsadida foydalangan resurslari asosida soliq bazasini aniqlash esa yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar soliq solish bazasini aniqlashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bazalari tadbirkorlik maqsadida foydalilanuvchi resurslar hajmiga bevosita bog'liq. Tadbirkorlik faoliyatida soliq to'lovchi qanchalik ko'p tabiiy resurslardan foydalansa, shuncha ushbu soliq turlariga mos bo'lgan soliq bazasi oshadi.

Soliqning ushbu turlarida ham boshqa soliq turlaridagi kabi soliq sohasida beriluvchi imtiyozlar soliq bazasini kamayishiga sabab bo'ladi.

Mamlakatimiz soliq tizimida ayrim soliq turlari bo'yicha faoliyat turiga qarab soliq solish bazasi aniqlanadi. Bu soliqlar jumlasiga qat'iy belgilangan miqdorda soliq, bolalar o'yin avtomatlari xizmati uchun belgilanadigan qat'iy soliq, avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash xizmati uchun qat'iy belgilangan kabi soliqlari kiradi.

Tadbirkorlik bilan shug'ullanuchi jismoniy shaxslar uchun ular egallagan maydon va o'rnatilgan o'yin joylar sonining ko'payishi soliq bazasini oshishiga olib keladi. Masalan, bolalar o'yin avtomatlari xizmati uchun belgilanadigan qat'iy soliq bazasi o'rnatilgan joylar soning ortishi bilan kengayib boradi va aksincha bu soliqdan berilgan imtiyozlar soliq bazasining qisqarishiga olib keladi.

Avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash xizmati uchun qat'iy belgilangan soliq to'lovchilari esa bu faoliyat bilan shug'ullanliklari uchun har bir metr kvadrat joy uchun soliq to'lashlarini hisobga olsak, soliq bazasining ortishi egallagan maydon hajmining kengayishiga bevosita bog'liqligini ko'rsatib beradi.

Soliq to'lovchining unga tegishli bo'lgan mulki asosida soliq bazasini aniqlash usuli vositasida yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i, avtotransport yig'implari soliq solish bazasini aniqlashda foydalilanadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bazasi O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 412-moddasiga asosan aniqlanadi. Mazkur moddaga asosan soliq solinadigan baza asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha -

asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati doirasida belgilanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bazasi O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 427-moddasi asosida aniqlanadi. Mazkur moddaga asosan soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari jami yer maydonidan chegirib tashlanadi. Ayirish natijasi soliq bazasi deb ataladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bazasi ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining kadastr qiymati me'yorida belgilanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i bazasi ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yer uchastkalarining maydoniga doir ma'lumotlari, jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligi uchun ajratilgan, shuningdek, yakka tartibdagi garajlar egallagan yer maydonlari uchun soliqqa tortish bazasi esa yer uchastkalarini bergen tashkilotlar boshqaruv organlarining ma'lumotlari asosida aniqlanadi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati, ko'chmas mulkga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining kadastr qiymati mol-mulk solig'i bazasiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu omillar miqdorigi qiyamatining oshishi soliq bazasini oshishiga olib keladi. Aksincha, korxonalar ixtiyorida bo'lgan asosiy vosita va nomoddiy aktivlarning eskirishi, hisobdan chiqarilishi, korxona va tashkilotlarning soni kamayishi mol-mulk solig'i bazasini sezilarli darajada kamayishiga olib keladi.

Har qanday holatda tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning sonini o'sishi barcha soliq turlari bo'yicha soliq bazasini ortishiga olib keladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning tarkibidagi sifat o'zgarishlari – moliyaviy barqaror korxona va tashkilotlar sonining ortishi, ishlab chiqariluvchi mahsulot hajmining oshishi, bajariluvchi ish va ko'rsatiluvchi xizmatlar hajmining

ortishi belgilangan soliqlar bazasini kengayishiga olib keladi.

**Xulosa va takliflar.** Soliq bazasi soliq to'lovchilar faoliyatiga bevosita ta'sir o'tkazuvchi omil sanilib, uning kengayishi yoki qisqarishi soliq to'lovchilar miqdoriga to'g'ridan to'g'ri ta'sir o'tkazadi, qolaversa, davlat byudjetiga kelib tushishi, tushim miqdorining o'zgarishiga to'g'ri proporsiyda bog'langan. Qolaversa, soliq bazasiga ta'sir etuvchi omillar xususiyatlari, ularning o'ziga xos jihatlarini o'rganar ekanmiz, bu omillar aniqlanuvchi soliq bazasiga funksional yohudnofunksioal bog'lanishlarga ega bo'lishi mumkin ekan. Jumldan, soliq to'lovchi tadbirkorlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar soning ortishi, jami daromad miqdorining oshish, realizatsiya qilingan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar baholari va birligining oshishi soliq bazasi kengayishiga to'g'ri proporsional bog'lanishda bo'lsa, mavjud soliqdan berilgan imtiyozlar, soliq bazasiga kiritimydigan daromad va xarajatlar miqdorining o'sishi teskari proporsiyada bog'langanligini ko'rshimiz mumkin.

Shunday ekan, soliq bazasini aniqlash tartibi soliq mexanizimining eng murakkab jarayoni va eng muhim bosqichi hisoblanadi. Soliq bazasining aniqlanishiga qarab soliq yuki, soliq tushumlari hajmi, soliqqa oid huquqiy munosabatlar va shu kabi muhim jarayonlar yuzaga keladi. Bu jarayonlar esa o'z navbatida soliq ma'murchiligiga borib taqaladi hamda uni murakkablashtiradi. Yuqoridagi holatlar esa soliq bazasini aniqlash tartibining puxta mexanizimi ularning to'g'ri va aniq hisoblanishiga, davlat byudjetiga yetarli miqdorda kelib tushishiga asos yaratuvchi asosiy manbaa ekanligini yana bir bor ko'rsatib beradi.

Xulosa tariqasida aytmoqchi bo'lganlarimiz shulardan iboratki, soliq turlari bo'yicha soliq bazasini aniqlashda hamda uning bazasiga ta'sir etuvchi omillarning xususiyatlari biz tomonдан maqolada keltirilgan uslubiy yondashuvlarda o'z aksini topgan va katta ahamiyatga ega deb hisoblanadi.

#### ***Mana va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli Farmoni
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi to'g'risidagi PF-6155 sonli qaror. 02.03.2021
3. Soliq statistikasi va proqnozi: O'quv qo'llanma / A.Jo'rayev, S.Shirinov. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2015. - 392 b.
4. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik/Toshkent Moliya instituti: "Noshir", 2011. 712 bet.
5. Xudoqulov S.K "Moliya va soliqlar": Darslik- T.: "IQTISODIYOT", 2020. - 554 b.(299 betdan olingan)
6. Peronko I.A, Gorelko A.I kabi iqtisodchi olimlar ham "Проблемы формирования налоговой базы на региональном и местном уровнях" nomli maqola
7. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi: -T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2020 y. -624 b
8. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik/Toshkent Moliya instituti: "Noshir", 2011. 712 bet.